
Sanoat yarmarkasida Qo'shtepalik tadbirkorlar faol ishtirok etdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6-7 may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida belgilab bergan vazifalari ijrosini ta'minlash yuzasidan shu yilning 28 noyabr kuni Farg'ona shahrida "Biznes markazi"ning tantanali ochilishi bo'lib o'tdi.

"Biznes markazi"da tashkil etilgan sanoat yarmarkasining rasmiy ochilish marosimida Farg'ona viloyati hokimining o'rinbosarlari, tuman hokimlarining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarlari, tadbirkorlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda 50 dan ziyod tadbirkorlar va kichik biznes subyektlari o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlari namunalarini sanoat yarmarkasi ishtirokchilari uchun namoyish etdilar.

Jumladan, yarmarkada Qo'shtepa tumanidan to'qimachilik, trikotaj, sanoat mahsulotlari, qurilish mollari, va hunarmandchilik buyumlari bilan tumandagi "Uniform plyus" MChJ, "Uz Nur Lord tekstil" MChJ, "Mavj quvonch ziyo" MChJ, "Fayzli Robiyaxon jilosi" xususiy korxonalari ishtirok etdilar.





2019-11-28 16:53:25